
Educational, Social, and Political Activities of Turkish Prisoners of War in Turkestan (1918-1921)

Jakhongir Tojiboev
j.i.tojiboev@gmail.com

Doctoral student,
Namangan State University

Annotation

The article analyzes the educational, social, and political activities of Ottoman Turkish prisoners of war who remained in Turkestan amid postwar instability, revolutionary change, and the formation of Soviet rule. It examines the participation of former Ottoman officers in Jadid schools, their influence on youth associations and semi-military groups, their relations with local Muslim communities, and the impact of Bolshevik propaganda among the prisoners. Drawing on archival documents, memoir evidence, and scholarly literature, the study discusses Mustafa Suphi's activities, the newspaper "Yeni Dünya," the idea of a Turkish Red Brigade, Ismail Suphi Bey's meeting with prisoners in Tashkent, and Ankara's proposals to send teachers and officers to Central Asia. The article argues that Turkish prisoners should be viewed not merely as objects of repatriation policy, but also as active participants in educational reform, social adaptation, ideological mobilization, and transnational political networks in postwar Turkestan. This perspective clarifies their role at the intersection of Jadid reformism, Soviet control, and Anatolian-Asian contacts.

Keywords

Turkestan, Turkish prisoners of war, Jadidism, Ottoman officers, Mustafa Suphi, Ankara government

Turkistonda Usmonli turk harbiy asirlarining ma'rifiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyati (1918-1921)

Jaxongir Tojiboyev
j.i.tojiboev@gmail.com

Doktorant,
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya

Maqolada Birinchi jahon urushidan keyingi siyosiy beqarorlik va sovet hokimiyati shakllanishi sharoitida Turkistonda qolgan Usmonli turk harbiy asirlarining ma'rifiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqot sobiq Usmonli zobitlarining jadid maktablarida o'qituvchilik qilishi, yoshlar tashkilotlari va yarimharbiy guruhlar shakllanishidagi ishtiroki, mahalliy musulmon jamoalar bilan aloqalari hamda bolshevik targ'iboti ta'sirini yoritadi. Shuningdek, Mustafa Suphi faoliyati, "Yeni Dünya" gazetasi, Turk Qizil brigadasi g'oyasi, Ismoil Suphi Beyning Toshkentdagi asirlar bilan uchrashuvi va Anqara hukumati tomonidan Markaziy Osiyoga o'qituvchi hamda zobitlar yuborish haqidagi tashabbuslar ko'rib chiqiladi. Maqolada arxiv hujjatlari, xotiralar va ilmiy adabiyotlar asosida turk asirlari faqat repatriatsiya obyekti emas, balki urushdan keyingi Turkistonning ta'lim, mafkura, ijtimoiy moslashuv va transmilliy siyosiy aloqalar jarayonida ishtirok etgan faol subyektlar sifatida baholanadi. Shu orqali ularning mahalliy jadidchilik muhiti, sovet nazorati va Anadolu bilan aloqalar kesishgan maydondagi o'rni hamda tarixiy ahamiyati aniqlashtiriladi. Tadqiqot migratsiya, asirlik va ma'rifat jarayonlari o'zaro bog'liqligini ham ko'rsatadi.

Kalit so'zlar *Turkiston, turk harbiy asirlari, jadidchilik, Usmonli zobitlari, Mustafa Suphi, Anqara hukumati*

Просветительская, социальная и политическая деятельность турецких военнопленных в Туркестане (1918-1921 гг.)

Жахонгир Тожибоев

j.i.tojiboev@gmail.com

Докторант,
Наманганский государственный университет

Аннотация *В статье анализируется просветительская, социальная и политическая деятельность османских турецких военнопленных, оставшихся в Туркестане в условиях послевоенной нестабильности, революционных перемен и становления советской власти. В центре внимания находятся участие бывших османских офицеров в джадидских школах, их влияние на молодежные организации и полувоенные группы, связи с местными мусульманскими общинами, а также воздействие большевистской агитации среди пленных. На основе архивных документов, мемуарных свидетельств и научной литературы рассматриваются деятельность Мустафы Субхи, газета "Yeni Dünya", идея Турецкой красной бригады, встреча Исмаила Супхи-бея с пленными в Ташкенте и планы Анкарского правительства по направлению учителей и офицеров в Центральную Азию. Автор показывает, что турецкие военнопленные были не только объектом репатриационной политики, но и активными участниками образовательных реформ, социальной адаптации, идеологической мобилизации и транснациональных политических связей в послевоенном Туркестане. Такой подход позволяет рассматривать их деятельность на пересечении джадидского движения, советского контроля и анатолийско-центральноазиатских контактов, раскрывая ее историческое значение. Исследование также показывает взаимосвязь миграции, плена и просвещения региона.*

Ключевые слова *Туркестан, турецкие военнопленные, джадидизм, османские офицеры, Мустафа Субхи, правительство Анкары*

Kirish

Birinchi jahon urushi yakunlari, Rossiya imperiyasining yemirilishi va mintaqada sovet hokimiyatining shakllanishi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yangi tarixiy vaziyatni yuzaga keltirdi. Ushbu davrda sobiq Usmonli harbiy asirlari masalasi faqat harbiy asirlik yoki reevakuatsiya muammosi doirasida qolib ketmadi. Ularning ayrimlari Turkistonning yirik

shaharlari – Toshkent, Samarqand va Buxoroda ma'rifiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga jalb etildi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, turk harbiy asirlari faoliyati Turkistonda jadidchilik harakati, yoshlar tashkilotlari, bolshevik targ'iboti va Anqara hukumati bilan bog'liq transmilliy aloqalarni o'rganishda muhim tadqiqot obyektidir. Mazkur maqolada turk

harbiy asirlarining Turkistondagi faoliyati qanday yo'nalishlarda namoyon bo'lgani, ularning mahalliy jamiyat bilan munosabatlari qanday shakllangani hamda bu jarayonlar mintaqaning urushdan keyingi siyosiy-mafkuraviy muhitiga qanday ta'sir ko'rsatgani tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Tadqiqotning manbaviy asosini arxiv hujjatlari, xotiralar va ilmiy adabiyotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Milliy arxivi materiallari turk zobitlari va Istanbulda tahsil olib qaytgan yosh jadidlar faoliyatining sovet xavfsizlik organlari tomonidan kuzatilganini ko'rsatadi (O'zMA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 168-yig'ma jild; 13). Bailey, Khalid, Xolid, Çakıröz va Kocaoğlu, Taşkıran, Akçura, Aslan, Yanıkdağ va boshqa tadqiqotchilarning ishlari esa turk harbiy asirlarining Turkiston, Rossiya va Anado'li bilan bog'liq harakat trayektoriyalarini yoritishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodologiya

Maqolada tarixiy-qiyosiy, muammoviy-xronologik va manbashunoslik tahlili usullaridan foydalanildi. Manbalar turk harbiy asirlarining maorif sohasidagi ishtiroki, mahalliy musulmon jamoalar bilan ijtimoiy aloqalari, bolsheviklar tomonidan siyosiy safarbar etilishi hamda Anqara hukumati bilan bog'liq tashabbuslar nuqtayi nazaridan guruhlashtirildi. Bu yondashuv turk asirlarini biryoqlama ravishda faqat harbiy kontingent yoki repatriatsiya obyekti sifatida emas, balki urushdan keyingi Turkistondagi transmilliy ijtimoiy guruh sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalar

Turk harbiy asirlarining maorif va harbiy tashkilotchilikdagi ishtiroki

Turk harbiy asirlarining Turkistondagi faoliyatini shartli ravishda ikki asosiy yo'nalishda tahlil qilish mumkin. Birinchi yo'nalish fuqaroviy ta'lim sohasi bilan bog'liq bo'lib, ular jadid maktablarida dars berish, yoshlarni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash, turkiy-ma'rifiy g'oyalarni yoyish va

yangi pedagogik tajribalarni mahalliy muhitga olib kirishda ishtirok etdilar. Ayniqsa, Istanbul va Usmonli ta'lim muhitidan kelgan intellektual tajriba jadid maktablaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonlarga muayyan ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir nafaqat fanlarni o'qitish mazmunida, balki intizom, jismoniy tarbiya, milliy ong va ijtimoiy faollikni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarda ham namoyon bo'ldi. Ikkinchi yo'nalish esa harbiy ta'lim va harbiy tashkilotchilik sohasi bilan bog'liq edi. Xususan, sobiq Usmonli zobitlarining ayrimlari Buxoro Respublikasining milliy armiyasini shakllantirish jarayonida ishtirok etgan (Bailey, 1946; 252). Ularning harbiy bilim va amaliy tajribasi mahalliy qurolli tuzilmalarni tashkil etish, harbiy intizomni yo'lga qo'yish hamda yangi siyosiy sharoitda milliy harbiy kadrlar tayyorlash jarayonida ahamiyat kasb etgan. Bu holat sobiq turk harbiy asirlarining Turkistondagi faoliyati faqat maorif yoki madaniyat bilan cheklanmaganini, balki mintaqaning siyosiy-harbiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatganini anglatadi.

1918-yil bahoridan 1920-yil qishigacha bo'lgan davr mobaynida turk harbiy asirlari Turkiston shaharlaridagi ijtimoiy muhitning muhim tarkibiy qatlamlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, Toshkent, Samarqand va Buxoro kabi siyosiy-ma'muriy hamda madaniy markazlarda ularning mavjudligi mahalliy jadidlar, yoshlar tashkilotlari, matbuot doiralari va harbiy-siyosiy guruhlar bilan o'zaro aloqalar shakllanishiga olib keldi. Bunday aloqalar sobiq asirlarning mintaqaga vaqtinchalik kelgan shaxslar bo'lib qolmay, balki urushdan keyingi Turkiston jamiyatida muayyan ijtimoiy va mafkuraviy vazifani bajargan guruhga aylanganini namoyon etadi.

Usmonli zobitlarining fuqaroviy ta'lim sohasidagi ishtiroki ularning Turkistondagi jadidchilik harakati bilan muayyan darajada mushtarak maqsadlarga ega bo'lganini ko'rsatadi. Ular Toshkent va Buxorodagi mavjud jadid maktablarida faoliyat yuritibgina qolmay, yangi maktablar tashkil etish va Usmonli davlatida shakllangan zamonaviy pedagogik

yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda ham qatnashganlar (Khalid, 2011; 464-465). Bu holat Turkistondagi ma'rifiy islohotlarning transmilliy aloqalar orqali boyiganini ko'rsatish bilan birga, urush va asirlik taqdiriga duchor bo'lgan Usmonli zobitlarining yangi hududda ham ma'naviy-intellektual faoliyatni davom ettirganini namoyon etadi.

Jadid maktablari, yoshlar tashkilotlari va sovet nazorati

Sobiq turk harbiy asirlarining muayyan qismi sovet hokimiyati nazorati ostida tashkil etilayotgan yangi tipdagi maktablarda dars berish taklifini qabul qildi. Bu holat, bir tomondan, urushdan keyingi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda asirlikdan ozod etilgan shaxslar uchun yashash manbai va moddiy ta'minot vositasi bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Turkistonda turkiy birlik, milliy uyg'onish va ma'rifiy faollik g'oyalarning kengayishiga ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, XX asr boshlarida mintaqada turkiylik ruhida yoshlar siyosiy va madaniy tashkilotlarining ko'payib borishida sobiq usmonli harbiy asirlarining ishtiroki sezilarli bo'ldi.

Kelib chiqishi jihatidan O'rta Osiyo bilan bog'liq bo'lgan, otasi Xo'janddan ko'chib ketgan va taqdir taqozosi bilan yana ota yurtiga qaytgan usmonli harbiy zobiti Said Ahroriy bu jarayonning faol ishtirokchilaridan biri edi. U 1918-yil bahorida Toshkentda Yosh turklar davrida shakllangan millatchi-ma'rifiy yoshlar tashkiloti – "Turk o'chog'i"ning mahalliy bo'linmasini tashkil etdi (Ahrorova, 1998; 12-60). Ushbu tashabbus Turkistonda usmonli siyosiy-ma'rifiy tajribasining mahalliy jadidchilik muhiti bilan tutashganligini ko'rsatadi. Shuningdek, "Turk o'rtoqligi" nomi bilan faoliyat yuritgan yana bir tashkilot qisqa muddat nashr etilgan "Turk so'zi" gazetasini chop etdi. Gazetaning dasturiy maqsadi uning sarlavhasida quyidagicha ifodalangan edi: "Turk millatini siyosiy, iqtisodiy va ilmiy asoratdan qutqarib, chin bir turk madaniyatini vujudga keltirmoq". Mazkur shior gazeta faoliyatining faqat axborot

yetkazish bilan cheklanmaganini, balki turkiy xalqlarni siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan uyg'otishga qaratilgan mafkuraviy-ma'rifiy vazifani ham o'z zimmasiga olganini ko'rsatadi. Gazeta mualliflari orasida G'ozii Yunus va Said Ahroriy kabi sobiq harbiy asirlarning bo'lishi esa usmonli asirlari Turkiston matbuoti va jamoatchilik fikri shakllanishida ham muayyan o'rin egallaganini tasdiqlaydi (Xolid, 2022; 82).

Sobiq turk harbiy asirlari faoliyat yuritgan ayrim maktablar o'z mazmuni va tarbiyaviy yo'nalishi jihatidan ochiq harbiy-intizomiy ruhga ega edi. Ular ta'lim jarayonida jismoniy chiniqish, qat'iy intizom, jamoaviy mas'uliyat va milliy g'urur kabi tushunchalarga alohida urg'u berganlar. Shu asosda Turkistonda dastlabki boyskaut guruhlari hamda "Turk kuchi", "Turon kuchi", "Temur", "Taraqqiy" kabi yarimharbiy xarakterdagi yoshlar to'dalari shakllandi (Çakıröz & Kocaoğlu, 1987; 42-43). Bunday tuzilmalar bir tomondan yoshlarni jismoniy va ma'naviy tarbiyalash vositasi sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'sha davr siyosiy muhitida milliy safarbarlik va yashirin siyosiy faollik unsurlarini ham o'zida mujassamlashtirgan edi. Aynan shu ijtimoiy-siyosiy sharoitda Turkistonda yashirin milliy harakatni tashkil etishga intilgan maxfiy jamiyatlar paydo bo'la boshladi. Bu holat sobiq harbiy asirlar faoliyatini faqat pedagogik yoki madaniy doira bilan cheklab bo'lmasligini ko'rsatadi. Ularning ayrimlari Turkistondagi milliy harakatlar, jadidchilik muhiti va turkiy birlik g'oyalari bilan bevosita aloqador bo'lgan. Shu bilan birga, bu jarayonni biryozlama baholash ham to'g'ri emas. Chunki 1921-yilga kelib turk asirlarining aksariyati Turkistonni tark etib, o'z yurtlariga qaytgan edi (Xolid, 2022; 82). Ularning faqat kichik bir qismi panturkizm g'oyalarning faol va izchil targ'ibotchilari sifatida maydonga chiqqan. Ko'pchilik sobiq asirlar uchun esa muallimlik, avvalo, moddiy ehtiyojni qondirish, kundalik tirikchilikni ta'minlash va vatanga qaytish uchun zarur mablag' jamg'arish imkoniyati sifatida ahamiyat kasb etgan.

Shunga qaramay, sobiq turk harbiy asirlari faoliyat yuritgan maktablarning Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotidagi ta'siri sezilarli bo'ldi. Mazkur o'quv muassasalarida keyinchalik XX asrning 20-yillarida nufuzli jamoat arboblari, siyosiy faollar va ziyolilar sifatida tanilgan shaxslar tahsil olgan. Bu esa mazkur maktablarning faqat vaqtinchalik ta'lim maskani emas, balki yangi avlod ijtimoiy-siyosiy qarashlarining shakllanishida muhim muhit bo'lganini ko'rsatadi.

Jadid maktablarida faoliyat yuritgan turk harbiy asirlari ta'lim jarayoniga an'anaviy diniy-ma'rifiy yondashuvdan farqli ravishda, zamonaviy fanlar, tartibli o'quv dasturi, intizom, jismoniy tarbiya va amaliy bilimlarga asoslangan usullarni olib kirganlar. Ularning ayrimlari harbiy sohada yetarli tayyorgarlikka ega bo'lish bilan birga, Istanbuldagi zamonaviy ta'lim muhitidan shakllangan dunyoqarash, pedagogik tajriba va milliy-ma'rifiy qarashlarni ham o'z faoliyatida namoyon etganlar (Çakıröz & Kocaoğlu, 1987; 41-42). Shu jihatdan ularning jadid maktablaridagi ishtiroki faqat o'qituvchilik faoliyati bilan cheklanmay, balki Turkistonda yangi maorif tizimining mazmunan boyishiga xizmat qilgan omillardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Bu jarayonda Istanbulda tahsil olib, Turkistonga qaytgan mahalliy yoshlarning roli ham alohida ahamiyatga ega edi. Ular asirlikdagi turk zobitlariga yordamchi sifatida faoliyat yuritib, o'quv jarayonini tashkil etishda bevosita ishtirok etdilar (Çakıröz & Kocaoğlu, 1987; 41-42). Ushbu hamkorlik natijasida jadid maktablarida mahalliy ma'rifatparvarlik an'analari bilan usmonli ta'lim tajribasi o'zaro tutashdi. Bunday aloqalar Turkistondagi yosh jadidlar uchun nafaqat pedagogik tajriba almashish, balki kengroq turkiy dunyo bilan intellektual va mafkuraviy bog'lanish imkoniyatini ham yaratdi.

Shu bilan birga, turk harbiy asirlari va xorijda ta'lim olib qaytgan yosh jadidlarning maorif sohasidagi faoliyati sovet hokimiyati hamda uning xavfsizlik organlari tomonidan befarq kuzatilmagan. Xususan, ularning ta'lim

jarayonidagi har bir xatti-harakati Turkiston rayon muhofaza bo'limi tomonidan nazorat ostiga olingan (O'zMA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 168-yig'ma jild; 13). Turkiston rayon muhofaza bo'limining bunday kuzatuvlari, avvalo, jadid maktablarida shakllanayotgan yangi avlodning dunyoqarashi, turkiy birlik g'oyalari, milliy uyg'onish kayfiyati va mustaqil fikrlashga moyilligidan xavotir mavjud bo'lganini anglatadi. Chunki turk zobitlari va Istanbulda ta'lim olgan yosh jadidlar ishtirokidagi ta'lim muhiti sovet hokimiyati uchun nazorat qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy-siyosiy maydonlardan biriga aylangan edi. Ularning harbiy-intizomiy ruhda tashkil etilgani, ta'lim jarayonida usmonli turkchasing keng qo'llangani va ayrim hollarda turkiy birlik g'oyalarining kuchli targ'ib etilgani mahalliy ziyolilar hamda sovet ma'muriy doiralari tomonidan tanqid qilindi. Ayniqsa, ta'lim mazmunining mahalliy til va ijtimoiy ehtiyojlardan uzoqlashib ketishi, shuningdek, maktablarning siyosiy-mafkuraviy yo'nalishi atrofida keskin bahslar yuzaga keldi. Demak, sobiq turk harbiy asirlarining Turkistondagi ma'rifiy faoliyati murakkab va ziddiyatli hodisa bo'lib, unda pedagogik tashabbus, moddiy zarurat, milliy uyg'onish, panturkistik qarashlar va sovet hokimiyati nazorati kabi omillar o'zaro kesishgan holda namoyon bo'lgan.

Ijtimoiy moslashuv va mahalliy musulmon jamoalar yordami

Sobiq turk harbiy asirlarining Turkistondagi ijtimoiy moslashuvi faqat mehnat faoliyati, ta'lim jarayonidagi ishtiroki yoki siyosiy-harbiy harakatlar bilan cheklanmagan. Ularning ayrimlari mahalliy jamiyat bilan yanada yaqin ijtimoiy aloqalar o'rnatib, Markaziy Osiyolik ayollar bilan nikoh munosabatlariga kirishganlar (Yanıkdağ, 2020; 201-202). Bu holat sobiq asirlarning mintaqadagi vaqtinchalik mavjudligi ayrim hollarda oilaviy va maishiy hayot darajasigacha chuqurlashganini ko'rsatadi. Mazkur nikohlar, bir tomondan, turk harbiy asirlarining mahalliy musulmon aholi bilan diniy, madaniy va etnik yaqinligi asosida shakllangan ijtimoiy

integratsiya jarayonining muhim ko'rinishi edi. Ikkinchi tomondan, bunday oilaviy aloqalar urush, asirlik va siyosiy beqarorlik sharoitida insoniy munosabatlarning davom etganini, sobiq asirlar mahalliy jamiyatda begona yoki mutlaqo ajratilgan guruh sifatida emas, balki muayyan darajada qabul qilingan ijtimoiy qatlam sifatida namoyon bo'lganini anglatadi. Keyinchalik ayrim sobiq turk harbiy asirlari o'z turmush o'rtoqlari bilan birga Turkiyaga qaytganlar (Yanıkdağ, 2020; 201-202). Bu jarayon turk asirlarining repatriatsiyasi faqat harbiy-siyosiy yoki ma'muriy hodisa bo'lmay, balki oilaviy migratsiya xususiyatiga ham ega bo'lganini ko'rsatadi. Markaziy Osiyolik ayollarning Turkiyaga ko'chib borishi esa urushdan keyingi davrda Turkiston va Anadolu o'rtasidagi insoniy, qarindoshlik va madaniy aloqalarning shakllanishiga xizmat qilgan.

Usmonli harbiy asirlarining Rossiya hududlaridagi hayotini tahlil qilishda mahalliy turkiy-musulmon jamoalar bilan munosabatlar alohida o'rin tutadi. Chunki aynan diniy, madaniy va etnik yaqinlik ko'plab hollarda asirlar uchun ijtimoiy himoya, amaliy yordam va ruhiy dalda manbai bo'lgan. Turkiy xalqlar, xususan, tatarlar Rossiya hududlarida saqlanayotgan Usmonli harbiy asirlariga turli shakllarda yordam ko'rsatganlar (Akçura, 1919; 28-29; Üner, n.d.; 464-465). Bu yordam moddiy, maishiy, tashkiliy va ruhiy ko'mak ko'rinishlarida namoyon bo'lgan. Ayrim hollarda mahalliy turkiy-musulmon aholi vakillari Usmonli asirlarining qochib ketishi yoki xavfsiz hududlarga yetib olishi uchun pasport, fuqarolik kiyimi va vaqtinchalik boshpana bilan ta'minlaganlar. Bu holat turkiy xalqlar orasida Usmonli asirlariga nisbatan faqat hamdardlik emas, balki amaliy birdamlik ham mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Boshqa hollarda esa turkiy-musulmon jamoalar Usmonli askarlarining vafotidan keyingi diniy marosimlarini ado etishda muhim rol o'ynaganlar. Xususan, lagerlarga olib ketilish jarayonida yo'l-yo'lakay vafot etgan va rus ma'murlari tomonidan temiryo'l chetida tashlab ketilgan Usmonli askarlarining jasadlari

mahalliy musulmonlar tomonidan islomiy odatlarga muvofiq dafn etilgan (Akçura, 1919; 28-29; Taşkıran, 2001; 215). Bu holat urush va asirlik sharoitida insoniy qadr-qimmatni saqlab qolish, marhum musulmon askarlarning diniy huquqlarini ado etish hamda diniy birdamlikni amaliy tarzda namoyon qilishning muhim ko'rinishi edi.

Shuningdek, turkiy aholi salmoqli bo'lgan ayrim shaharlarda Usmonli asirlariga yordam ko'rsatish maqsadida kichik tashkiliy guruhlar ham shakllangan. Ular asirlar uchun pul yig'ish, ehson tashkil etish, oziq-ovqat yoki kiyim-kechak yetkazish, shuningdek, ayrim hollarda qochish yo'llarini topishda vositachilik qilish kabi ishlar bilan shug'ullanganlar (Akçura, 1919; 28-29; Üner, n.d.; 464-465). Bunday tashabbuslar mahalliy musulmon jamoalarning Usmonli asirlari taqdiriga befarq bo'lmaganini va ularni umumiy diniy-madaniy makon vakillari sifatida qabul qilganini ko'rsatadi. Turkiy xalqlarning mavjudligi va ulardan kelgan yordam Usmonli harbiy asirlari uchun nafaqat amaliy, balki ruhiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etgan. Chunki begona muhitda, og'ir asirlik sharoitida va noaniq kelajak qarshisida mahalliy turkiy-musulmon aholining qo'llab-quvvatlashi asirlarga o'zlarini mutlaqo yolg'iz emasligini his ettirgan. Bu ruhiy dalda ularning tirik qolish, qochish yoki vataniga qaytish umidini saqlab qolishida muhim omil bo'lgan.

Bolshevik targ'iboti va Mustafa Suphi faoliyati

Bolsheviklarning Usmonli harbiy asirlari orasida siyosiy ta'sir doirasini kengaytirish yo'llaridan biri ularning g'oyalari qaytarib berilgan bo'lgan usmonli fuqarolari va ziyolilaridan foydalanish edi. Bu borada Mustafa Suphi faoliyati alohida e'tiborga loyiqdir. Urush boshlanganda Rossiyada surgunda bo'lgan usmonli jurnalisti Mustafa Suphi keyinchalik bolsheviklar bilan yaqinlashib, ularning siyosiy-mafkuraviy targ'ibot ishlarida faol ishtirok eta boshladi. Uning faoliyati bolsheviklarning musulmon va turkiy aholi, xususan, Usmonli harbiy asirlari orasida kommunistik g'oyalarni

yoyishga qaratilgan siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ldi. Bolsheviklar ko'magida Mustafa Suphi "Yeni Dünya" ("Yangi dunyo") nomli targ'ibot gazetasini nashr etdi (Khalid, 2011; 455-456). Ushbu gazeta, avvalo, turk harbiy asirlari saqlanayotgan lagerlarga yuborilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi asirlar orasida bolsheviklar mafkurasini targ'ib qilish, Rossiyadagi inqilobiy o'zgarishlarni ijobiy talqin etish va Usmonli fuqarolarini yangi siyosiy harakatlarga jalb etishdan iborat edi. Gazetaning turk tilida nashr etilishi ham bejiz emas edi: bu usul asirlar bilan bevosita mafkuraviy aloqa o'rnatish, ularning til va madaniy muhitiga mos tarzda targ'ibot olib borish imkonini bergan.

Mustafa Suphi faqat matbuot orqali targ'ibot olib borish bilan cheklanmagan. U tarafdorlar orttirish maqsadida turk harbiy asirlari joylashtirilgan bir necha lagerlarga safar qilgan (Aslan, 1997; 42-43). Bu tashriflar bolsheviklar uchun amaliy jihatdan muhim edi, chunki bevosita muloqot orqali asirlarning kayfiyati, siyosiy moyilligi va ularni inqilobiy harakatga jalb etish imkoniyatlari aniqlangan. Shu tariqa sobiq Usmonli asirlari orasida kommunistik g'oyalarga xayrixoh guruhlar shakllana boshlagan. Mazkur faoliyatning muhim natijalaridan biri qariyb 1000 kishidan iborat "Türk Kızıl Alayı", ya'ni Turk Qizil brigadasining tuzilishi bo'ldi (Aslan, 1997; 43-46; Tunçay, 1991; 348-349). Bu tuzilma bolsheviklarning harbiy-siyosiy maqsadlari uchun Usmonli asirlari va turk muhojirlaridan foydalanishga intilganini ko'rsatadi. Turk Qizil brigadasi faqat harbiy birlik sifatida emas, balki turk asirlari orasida bolshevik mafkurasining muayyan darajada qabul qilinganini ko'rsatuvchi siyosiy hodisa sifatida ham talqin etilishi mumkin.

1920-yilda Mustafa Suphi va uning safdoshlari, jumladan, qariyb 20 nafar sobiq turk harbiy asiri Bokuda Turkiya Kommunistik partiyasini tashkil etdilar (Khalid, 2011; 471-472; Aslan, 1997). Bu voqea sobiq Usmonli harbiy asirlarining bir qismi urushdan keyingi davrda faqat repatriatsiya qilinishi lozim bo'lgan

shaxslar sifatida emas, balki transmilliy siyosiy-mafkuraviy jarayonlarning faol ishtirokchilari sifatida maydonga chiqqanini ko'rsatadi. Boku bu jarayonda Rossiya, Kavkaz, Turkiston va Anado'li o'rtasidagi inqilobiy aloqalar kesishgan muhim siyosiy markaz vazifasini bajardi.

Shuningdek, kommunistik qarashlarni qabul qilgan sobiq asirlar guruhining bir qismi 1920-yilda Turkiyaga yuborilgani haqida ham ayrim ma'lumotlar mavjud (Aslan, 1997; 294). Bu holat bolsheviklar va turk kommunistlari tomonidan inqilobiy g'oyalarni Anado'lga olib kirish, Turkiyadagi siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish va mahalliy kommunistik harakatni kuchaytirish maqsadlari bilan bog'liq bo'lganini anglatadi.

Anqara hukumati, Toshkentdagi asirlar va Markaziy Osiyo omili

Usmonli harbiy asirlarining taqdiri nafaqat Rossiya va sovet ma'muriy organlari, balki Usmonli imperiyasi hukumati hamda 1920-yilda Anqarada shakllangan Turkiya Milliy hukumati e'tiborida ham bo'lgan. Har ikki siyosiy markaz vakillarining Rossiya va Turkiston hududlaridagi turk asirlariga tashrif buyurgani bu masalaning faqat gumanitar yoki repatriatsiya doirasida emas, balki kengroq siyosiy va strategik ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi. 1920-yilda Ismoil Suphi Bey Toshkentdagi turk harbiy asirlari huzuriga tashrif buyurgan. Bu tashrifdan ko'zlangan maqsad, sobiq turk harbiy asirlaridan "Turk qizil armiyasi"ni tuzish edi. U asirlardan Markaziy Osiyo xalqlariga yordam berish maqsadida ma'lum muddat shu yerda qolishni so'ragan. Ketishidan oldin esa ularga moddiy yordam yuborishni va'da qilgan. Mazkur mablag' ko'p o'tmay Turkiya Milliy hukumatining Moskvadagi elchisi orqali yetib kelgan (Taşkıran, 2001; 322). Bu holat Anqara hukumati Turkistondagi sobiq Usmonli asirlarini faqat vataniga qaytarilishi lozim bo'lgan shaxslar sifatida emas, balki mintaqada muayyan ijtimoiy, ma'rifiy va siyosiy vazifalarni bajarishi mumkin bo'lgan kuch sifatida ham ko'rganini anglatadi.

Ismoil Suphi Beyning Toshkentdagi asirlarga qilgan murojaati alohida e'tiborga loyiqdir. Uning asirlardan Markaziy Osiyoda qolib, mahalliy xalqlarga yordam berishni so'rashi Anqara hukumati siyosiy tasavvurida Anadolu turklari bilan Markaziy Osiyo turklari o'rtasidagi tarixiy, madaniy va siyosiy aloqalarni jonlantirish g'oyasi mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Bu yondashuv, bir tomondan, umumturkiy birdamlik kayfiyatlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, Turkiya Milliy hukumatining xalqaro maydonda o'ziga tayanch bo'lishi mumkin bo'lgan turkiy-musulmon muhitlar bilan aloqalarni mustahkamlashga intilganini ham namoyon etadi. Darhaqiqat, Milliy hukumat amaldorlaridan biri tomonidan tayyorlangan hisobotda hatto 1921-yilda ham Markaziy Osiyoga qo'shimcha o'qituvchilar va zobitlar yuborish taklif qilingan (Çakıröz & Kocaoğlu, 1987; 25-26). Bu taklif Anqara hukumati Markaziy Osiyoni faqat sobiq asirlar mavjud bo'lgan hudud sifatida emas, balki ma'rifiy, harbiy va siyosiy hamkorlik uchun istiqbolli makon sifatida tasavvur qilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, o'qituvchilar va zobitlarning yuborilishi haqidagi fikr mintaqada ta'lim, tashkiliy tajriba va harbiy bilimlar orqali ta'sir doirasini kengaytirish niyati mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Muhokama va tahlil

Keltirilgan ma'lumotlar turk harbiy asirlarining Turkistondagi o'rni murakkab va ko'p qatlamli bo'lganini ko'rsatadi. Ularni faqat panturkistik g'oyalar targ'ibotchilari sifatida talqin qilish tarixiy jarayonni soddalashtirib yuboradi. Chunki ko'pchilik sobiq asirlar uchun muallimlik, mahalliy mehnat yoki siyosiy guruhlariga yaqinlashuv, avvalo, yashash manbai topish va vatanga qaytish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq amaliy zarurat edi.

Shu bilan birga, bu guruhning ayrim vakillari jadid maktablari, yoshlar tashkilotlari,

bolshevik targ'iboti va Anqara hukumati tashabbuslari orqali Turkistonning siyosiy-mafkuraviy maydonida sezilarli iz qoldirdi. Ayniqsa, ta'lim, harbiy intizom va turkiy birdamlik g'oyalari tutashgan nuqtalarda sobiq Usmonli zobitlari mahalliy jadidlar bilan umumiy manfaatlarga ega bo'lgan. Sovet xavfsizlik organlari nazoratining kuchayishi esa mazkur faoliyatning siyosiy jihatdan sezgir hodisa sifatida qabul qilinganini ko'rsatadi.

Mahalliy musulmon jamoalar bilan aloqalar turk asirlarining ijtimoiy moslashuvini yengillashtirdi. Nikoh munosabatlari, moddiy yordam, boshpana, diniy marosimlarni ado etish kabi holatlar urush sharoitida ham diniy-madaniy yaqinlik va insoniy birdamlik omillari saqlanib qolganini tasdiqlaydi. Demak, Turkistondagi turk asirlari tarixi migratsiya, asirlik, ma'rifat, mafkura va geosiyosiy manfaatlar kesishgan tarixiy maydon sifatida o'rganilishi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 1918–1921-yillarda Turkistonda faoliyat yuritgan turk harbiy asirlari mintaqaning urushdan keyingi ijtimoiy-siyosiy hayotida alohida o'rin egalladi. Ularning bir qismi jadid maktablarda dars berdi, yoshlar tashkilotlari va yarimharbiy guruhlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi, mahalliy musulmon jamoalar bilan yaqin ijtimoiy munosabatlar o'rnatdi hamda bolshevik va Anqara siyosiy loyihalari bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turk harbiy asirlari Turkistonda bir vaqtning o'zida nazorat ostidagi sobiq dushman harbiy kontingenti, maorif va harbiy tajriba tashuvchilari, mahalliy musulmon jamiyatiga yaqin ijtimoiy guruh hamda transmilliy siyosiy aloqalar subyekti sifatida namoyon bo'lgan. Shu bois ularning faoliyatini o'rganish Turkiston tarixidagi urush, migratsiya, asirlik, jadidchilik va geosiyosiy raqobat jarayonlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

References:

1. Ahrorova, X. (1998). *Izlarini izlayman*. Toshkent.
2. Akçura, Y. (1919). *Rusya Üserası Murahhası Yusuf Akçura Bey'in Raporu*. Dersaadet: Matbaa-i Orhaniye.
3. Aslan, Y. (1997). *Türkiye Komünist Fırkası'nın Kuruluşu ve Mustafa Suphi: Türkiye Komünistlerinin Rusya'da Teşkilâtlanması (1918–1921)*. Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi.
4. Bailey, F. M. (1946). *Mission to Tashkent*. London: Jonathan Cape.
5. Çakıröz, R., & Kocaoğlu, T. (1987). *Türkistan'da Türk Subayları faaliyetleri (1914–1923)*. Türk Dünyası Tarih Dergisi.
6. Khalid, A. (2011). Central Asia between the Ottoman and the Soviet Worlds. *Kritika: Explorations in Russian and Eurasian History*, 12(2), 451–476.
7. *O'zbekiston Milliy arxivi*. I-461-fond, 1-ro'yxat, 168-yig'ma jild, 13-varaq.
8. Taşkiran, C. (2001). *Ana Ben Ölmedim: Birinci Dünya Savaşı'nda Türk Esirleri*. İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları.
9. Tunçay, M. (1991). *Türkiye'de Sol Akımlar (1908–1925): Belgeler*. İstanbul: BDS Yayınları.
10. Üner, M. (n.d.). *Birinci Dünya Savaşı'nda Ruslara Esir Düşen Türk Askerleri Üzerinde Bolşevik İhtilali'nin İktisadi Yansımaları*. Belleten.
11. Xolid, A. (2022). *O'zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob*. Toshkent: Akadernashr.
12. Yanıkdağ, Y. (2020). *Flirting with the Enemy: Ottoman prisoners of war and Russian women during the Great War*. In J. Deak, H. R. Perry, & E. Sencer (Eds.), *The Central Powers in Russia's Great War and Revolution, 1914–22: Enemy Visions and Encounters*. Bloomington, IN: Slavica Publishers.